

# TONG yulduzi

O'zbekiston Respublikasi bolalari va o'smirlari gazetasi

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqib boshlagan

2006-yil 12 - 18 - iyun N:24 (66565)

## Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,  
O'zbekiston Respublikasi Xalq Ta'limi Vazirligi,  
«KAMOLOT» Yoshlar Ijtimoiy Harakati,  
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» Hukumatga qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya jam'armasi.

## SAHIFALARDA

Muhammad Sodiq Rahmonov

MENING CHAMANIM

(She'rlar guldastasi)

3-4-BETDA  
5-6

YOZILMAGAN KITOB



7-BETDA

BO'SH O'TIRMAY - BOSH QOTIR!

7-BETDA



Quyosh kulyapti bizga qarab,  
Nurga to'lyapti hamma taraf.  
Quyosh bizniki,  
o'g'il-qizniki!

## HEY-VOHmi, XIVA?

### Shahringiz tarixini bilasizmi?

Rivoyat qilishlaricha, biz zamonlar Ajamdan kelayotgan karvon Jayhun daryosining so'lg'og'ida hordiq olgani to'xtabdi. O'sha yerda qadimiy quduq bor ekan. Odamlar uning atrofini tozalab, o'sha suvdan olib, avvalo sarbonga uzatishibdi. Sahroda chanqab turgan karvonboshi uni simiribdi-da, «Hey-voh», deb yuboribdi. Keyinchalik quduq atrofi o'ralib, yon-atrofiga imoratlar qurila boshlabdi. «Hey-voh» atamasi ham saqlanib qolibdi. Xiva so'zi «Hey-voh»dan kelib chiqqan deyishlari shundan ekan.

Matluba EGAMBERGANOVA,  
Xorazm viloyati, Xiva tumanidagi  
16-o'rta maktabning 6-sinf o'quvchisi.

## IMTIHONLARGA SHAYMISIZ?

Maktablarda so'nggi qo'ng'iroq sadolari ham tinib, 9-11- sinf o'quvchilari uchun eng hayajonli kunlar boshlandi. Chunki ular ayni kunlarda davlat imtihonlarini topshirishayapti. Imtihonlar xususida, o'quvchilarni ularni qay darajada topshirishayotganini bilish maqsadida Yunusobod tumanidagi 143-maktabga yo'l oldim. Maktab hovlisi o'quvchilar bilan gavjum. Ba'zilari bir-birlarini savolga tutishgan, ba'zilari esa kechagi yod olgan formula yoxud matnlarni takrorlaydi. Chekkaroqda o'tirgan qizlar diqqatimni tortishdi va men ularga yuzlandim:



— Qizlar, imtihonlar qiynab qo'ymayaptimi?

— Rus tili hamda matematika fanidan imtihonlar bo'lib o'tdi. Endi navbat fizika faniga, deydi 9-«A» sinf o'quvchisi Nigora Roziqova. — Bugun fizika fanidan imtihonlardan o'tib olsak, keyin kimyo va tarix fanlariga navbat keladi. Imtihonlarga tayyorlanishda bizga sinf rahbarimiz Dilshoda opa hamda imtihon bo'ladigan har bir fanning ustozlari

yaqindan yordam berishayapti.

— Biz har kuni konsultatsiyalarga qatnab, barcha imtihonlarga puxta tayyorgarlik ko'rayapmiz, deydi suhbatimizga qo'shilib Diyora To'rayeva. — Bizga yaqindan yordam berayotgan barcha ustozlarimizga rahmat aytamiz. O'ylaymanki, barcha imtihonlarni a'lo baholarga yakunlab, kelgusida ustozlarimizni yuzlarini yorug' qilib, jamiyatda o'z o'rnimizni egallaymiz, degan umiddaman. Bu yil maktabni bitirib ketayapmiz. Bizga yil davomida hamroh bo'lgan «Tong yulduzi»ning kelgusidagi o'quvchilariga omad tilaymiz.

Men ham bitiruvchilarga oq yo'l tilab, ular bilan xayrlashdim.  
Ozoda TURSUNBOYEVA yozib oldi.



–Assalomu alaykum, mumkinmi?-deya tahririyatimizga kirib keldilar yoshi ulug'roq otaxon. –Qarang, O'zbekistonga kelmaganimga ham 10 yildan oshibdi. Avvallari «G'uncha» jurnaliga tez-tez kelib turardim. Yayra Sa'dullayeva hamda Rauf Parfilar ko'magida ko'plab she'r, topishmoq va tez aytishlarim jurnalda chop etilib turardi.

–Uzr, tanimasni siylamas, deydilar. O'zingiz qayerdانسiz?

–Men Qozog'iston Respublikasi, Chimkent shahridanman. Ismi-sharifim–Tursunxo'ja Ortiqxo'jayev, bir kam yetmishdaman. To'qqiz nafar farzandlarim,



21ta nabiralirim va 1ta abiram bor. Bolalarimning mehr tafti mening qo'limga qalam tutqazgan. Yaxshiyam shular bor ekan, tuzukkina shoir bo'lib qoldim.

–Kasbingiz nima edi?

–Men umr bo'yi ishchi bo'lib ishlaganman. Aslini so'rasangiz, oliygoh u yoqda tursin, o'rta maktabni ham to'liq tugatmaganman. Hayot o'zi menga ta'lim-tarbiya berdi. Insonning umriga umr qo'shilgani sayin ham ma'nan, ham ruhan yetilaverar ekan. Hayotni ham teranroq ko'raverarkansan...

–Keling, bolajonlar hukmiga ijod namunalaringizdan havola qilsak.

Muharrama PIRMATOVA.

## TUSHLIK

Tushlik qildim  
Mazza qilib.  
Dasturxonni  
toza qilib.  
Somsa, manti  
Yedim rosa.

Tarvuzni-chi  
Qildim kosa.  
Choyini ichdim,  
Qo'shib norin.  
Voy-voy, endi  
Og'rir qornim.

Tashlab unga chaqamni,  
Teraman kerak raqamni.  
Sandig

Mol-u mulki ichida,  
Turar xona burchida.  
Toshbaqa

## TEZ AYTISHLAR

Bu yil bahorda Boboqul bog'bon  
boboning bodomlari baroqday gulladi.

Qorni och qop-qora qashqir  
qosh qorayganda qo'ylar qo'rasiga qarab  
qo'yardi.

Elga manzur ishi bilan,  
Yer kavlaydi tishi bilan.  
Telefon

## TOPISHMOQLAR

Ikki palla o'rtasida,  
Ilon kalla elkasida.  
Ekskavator.

Tursunxo'ja ORTIQXO'JAYEV,  
Qozog'iston Respublikasi, Chimkent shahri.

Qadim zamonda, kimsasiz o'rmon etagida chiroyli bir kulbacha bo'lgan ekan. Bu kulbachada chol bilan kampir yolg'iz kun ko'rishar ekan. Bir kuni chol:

–Qani edi bizni ham farzandimiz bo'lganda, ko'nglimizga malham bo'larmidi. U bilan ovunib, kunimiz qanday o'tganini sezmay qolardik, - deb kampiriga armon to'la gaplarini aytib yig'lab yuboribdi.

–E-e-e, nimasini aytasiz chol, agar farzandimiz bo'lganda, uzog'imizni yaqin, og'irimizni yengil qilardi. Mayli, ko'p o'ksimang chol, qismatimiz shu ekan. Endi bu yog'iga ham bir-birimizga suyanchiq bo'lib yashayveramiz. Baxtinga siz omon bo'ling, - debdi kampir yig'idan o'zini arang tiyib.

Shundan keyin chol o'rmonga o'tin kesib kelgani ketibdi. Kampir esa ko'rpa qavishga o'tiribdi. Qo'lida igna, barmog'ida angishvona – o'zi ko'rpa qavish bilan band-u, cholining gaplarini eslab, ko'zlaridan duv-duv yosh oqar, «Cholim boyaqish yolg'izligimizga shuncha chidadi, lekin bugun – kuni kelib dilidagi armonlarini to'kib soldi», - degan xayolni ko'nglidan o'tkazardi.

Chol-kampir o'rtalaridagi bu gapni deraza oldidagi kichik bir daraxtda o'tirgan chittak eshitib turgan ekan. Uning chol-kampirga juda-juda rahmi kelibdi. U «pir-r» etib allaqayoqqa uchib ketibdi-yu, oradan ancha vaqt o'tgach tumshug'ida bir g'aroyib gulni ko'tarib kelib, kampirning etagiga qo'yib ketibdi.

Kampir hayron bo'libdi. O'rmondan qaytgan chol ham bu gulni ko'rib rosa ajablanibdi. Ular gulni ko'zachadagi suvga solib qo'yishibdi. Ertasiga tong saharda chol bilan kampir «Oyijon, dadajon» degan yoqimli ovozdan uyg'onib ketishibdi. Qarashsa, boyagi ko'zacha yonida jajji bir qizaloq turgan emish.

Chol bilan kampir juda xursand bo'lib ketishibdi. Qizchani o'pib, bag'rilariga bosishibdi. Uning ismini Nilufar deb atashibdi.

Shundan keyin chol bilan kampir xushchaqchaq kun kechira boshlashibdi. Ular Nilufarni yer-u ko'kka ishonishmas ekan. Nilufar ham oyijonisi va dadajonisini jondildan sevar, qo'lidan kelgancha ularning yumushlarini bajarib, og'irini yengil qilishni o'ylar ekan.

Kunlardan bir kun chol o'rmonga ovga ketganida uyda suv qolmaganini ko'rgan Nilufar soyga suv olib kelgani bormoqchi bo'libdi. Oyisi esa «Jon qizim, bir o'zing

## O'zimiz ertak yozamiz

suvga borma, sabr qilsang, hademay dadang keladi, birga borasizlar», - deyishiga qaramasdan:

–Oyijon, dadam ovdan charchab-horib qaytadilar. Yana biz ularni suvga yuboramizmi? Men o'zim suv olib kelaman. Siz hech xavotir olmang, - deb oyisining hay-haylashiga qaramasdan chelakchalarini ko'tarib suv tomonga yugurib ketibdi.

Nilufar soyga yetib kelibdi. Darhol chelakchalardan birini suvga botiribdi-yu, biroq suv to'la chelakni tortib olishga rosa qiynalibdi. Chunki u juda nozik bo'lib, og'ir narsalarni ko'tarishga qiynalar ekan. Birinchi chelakni soydan arang chiqarib olibdi-yu, keyin qo'rqa-pisa ikkinchi chelakni suvga botiribdi. Uni suvdan chiqarib olishga urina-urina o'zi ham soyga tushib ketibdi. Nima qilarini bilmay rosa dod-voy solibdi. Biroq, atrofda hech kim yo'q ekan. Suv Nilufarni oqizib ketibdi.

Chol ovdan qaytgach uyiga kirib, «Nilufar, qizalog'im, mana senga quyonning bolachasini ushlab keldim», - deya xursand bo'lib qizini chaqiribdi. Kampir choliga yuzlanib:

–Voy chol, qizimiz shuncha hay-haylaganimga qaramasdan soyga suv olib kelgani ketdi, - debdi.

Chol Nilufarni bir o'zini suvga yuborgani uchun kampirni urishib beribdi.

Ular vahimaga tushib, soy tomonga qarab yugurishibdi. Borib qarashsa, soy bo'yida bir chelak suv turgan emish. Nilufar bilan ikkinchi chelak yo'qligini ko'rgach, nima bo'lganini tushunib yetishibdi. Shunga qaramay, «Nilufar, qizalog'im, bizni tashlab ketma, jonim qizim. Sensiz biz qanday yashaymiz, qayt bolaginam», - deb ho'ng-ho'ng yig'lashibdi.

Shu payt suv yuzasida ko'zni quvontiradigan ajoyib bir gul paydo bo'libdi. Chol bilan kampir gulga qarab, «Nilufarim, Nilufargulim», - deb unga termulib qolishibdi.

Nilufargul ana shunday paydo bo'lgan ekan.

Chol bilan kampir hamon soy bo'yida yig'lab o'tirgan emish. Chunki ular bir kun kelib Nilufargul ajoyib, go'zal qizga aylanib, albatta oyijonisi bilan dadajonisi bag'riga qaytishiga ishonishar ekan...



«Tong yulduzi» gazetasi mening eng yaqin do'stim, uning har bir sonini intizorlik bilan



kutaman, deya bizga maktub

yo'llabdi samarqandlik tengdoshingiz Shohsanam Abdurahmonova. U


Narpay tumanidagi 60- maktabning 5-

«A» sinfida «a'lo» va

«yaxshi» baholarga o'qir


ekan. Shohsanam gul-

larni, daraxtlarni, qushlarni, ertak qahramonlarini rasmlarini chizishni yaxshi ko'rarkan. U tahririyatimizga o'zi chizgan rasmlarini yuboribdi.



## NILUFARGUL

(Ertak)



Xurshid BAHODIROV,  
Toshkent shahar, Shayxontohur tumanidagi  
115 - maktabning 4- «A» sinf o'quvchisi.


## ISTIQLOL TENGDOSHI



Istiqlol tengdoshi Muhammad Sodiq Rahmonov 15 yoshda. U Toshkentdagi 146-o'rtta maktabning 9-sinfida a'lo baholarga o'qish bilan birga jamoat ishlarida faol. Adabiyot jon-u dili. Kompyuterni mukammal o'rganib, internetda bemalol

91

O'zbekiston shuhratini olamga sochgan - Rustam nomi jahon bo'ylab ketgan Vatan bu. U dilkash-u, ochiq ko'ngil, to'le kulgan, O'qib-o'qib to'rtta tili mukammal bilgan. Yigirma to'rt yoshli yigit chempion bo'lgan, Qoyil, hatto Amir Temur ordenini olgan, Rustam nomi dillarni rom etgan Vatan bu.



## MUNDARIJA

Istiqlol tengdoshi.....	2
Mustaqillik shodiyonasi.....	3
Kuzda.....	6
Baxt keltiradi.....	7
Keksalar.....	8
Jahon tili - do'stlik yo'li.....	9
Farvon bo'lsin zamon.....	10
Tarix.....	11
Adabiyot va ona tili muallimiga.....	12
Xazinadir o'zbek tili.....	13
Chempionlar o'sgan Vatan bu.....	16
Bebaho gulshanim.....	17
Ko'p asar yozing.....	18
Adabiyot bog'boni.....	19
Yurtda aziz shifokor.....	20
Navro'z xalq shodiyonasi.....	21
Dono ustozim.....	24
Geografiya darsida.....	26
Jismoniy tarbiya domlasi.....	27
Matematika - hisob darsi.....	28
Dunyoga mash'al.....	29

30

Ilm-u hunar sardorlari chiqqan Vatan bu, Onalar ne pir, alloma tuqqan Vatan bu. Jahongir-u shoh, sultonlar o'sgan Vatan bu, Aslida mard, polvonlarga maskan Vatan bu, O'g'li shaxmat tojimi ham taqqan Vatan bu.

Ota-ona duosidan qush bo'lib uchgan, Xalqning orzu tilaklari qalbiga ko'chgan, Bobolari duosidan zafarlar quehgan,

15

## CHEMPIONLAR O'SGAN VATAN BU

Bobomlar har yozgan kitob - Nur sohadisi misli oftob, O'zbekchadir - shirin, noyob, Hikmat to'la ahloq-odob, Ona tilim - ko'ngil gulim.

qirg'ish chizig'i

Vatan gul bog'lari tovlanar kuzda, Mehrijon nurlari taralar kuzda, Ish sara-puchagi sanalar kuzda, Yangi yilga umid bog'lanar kuzda, Kuz yillik samara, shodlik fasilidur.

## BAXT KELITIRADI...



O'qitasiz bizni chin dildan, Kitoblarga oshmo etasiz. Bilim berib, har birimizdan - Akademik, hokim kutasiz.

7

Xullas, el-u yurt obod, Zavq-u shavqqa to'lamiz, Navro'z ayyomidan shod, Yayrab xursand bo'lamiz.

## DONO USTOZIM

(El e'tiborini qozongan pedagog-olima, Toshkent shahridagi 146 - o'rtta maktab direktori Zurriyot opa Ahmedovaga)

O'qituvchilar sarvari, ilm-u fanlar gavhari, Maktabning chin bekasi, ustozlarning rahbari, Darsi: Odob, Diyonat, Yurtga mehribon - sabog'i, Ferner, olim yo shoir tayyorlar o'quv bog'i...

Otasiday bilimdon, oy chehrasi charog'on, Tiyrak ko'z-u-shirin so'z, shogirdlarga mehribon, Davlat etar iymonga, har o'g'iti - bir olam, «Bo'lma mayli hokim, shoh, bo'l deydi, - chin odam!»

24

8

Sizlar bilan mahalla-ko'y oboddir, Sizlar bilan davra quvnoq, dil shoddir, Siz kulganda go'yo olam kuladi, Siz bor joyda baxt-u-qboli bo'ladi.

## KEKSALAR

Uyimizning to'ri sizga, keksalar, Qalbimizning qo'ri sizga, keksalar, Sizlar borki, fayzga to'lar har xona, Sizlar borki, har xonadon - nurxona.

Mehringizdan ko'ngillar shodon, Xato qilsak, uzr, oqlaymiz, Ona kabi azizsiz har on, Nomingizni dilda saqlaymiz, Bugun orzum etmoqda parvoz, Rahmat Sizga, ustoz muallim, Sizni yuz bor ta'riflasam oz, Baxt keltirdi siz bergan ta'lim.

32

Shu kuni yosh-u keksa, Quechoq ochib ko'rishar, Kimlar araz bo'lishsa, Navro'z sabab yarashar, Yigit-qizlar yasangan, Bo'lar chinakam sayil, Olam gulga burkangan, Atrof chaman, yam-yashil.



Muhammad Sodiq Rahmonov.


# MENING



## CHAMANIM

(She'rlar guldastasi)

**Toshkent - 2006.**



**"Tong yulduzi" 2006-yil**

O'ynab-kulib o'sganim,  
Bog'u gulzor, chamanim.  
Ona yurt - jon-u tanim,  
O'zbekiston - maskanim,  
Tengsiz, go'zal Vatanim!

17

## BEBAHO GULSHANIM

Siz bilan bir zamonadosh bo'lganim uchun,  
Faxrdan yuragim tog', dillar chog' bugun.  
Butun dunyo qoyil - ko'rib o'zbeгим kuchim,  
Chunki shaxmat osmonida bo'ldi sarlochin,  
Rustam degan chempionlar o'sgan Vatanim.

Dunyo bilan tilashamiz,  
Xalqlar bilan dillashamiz.  
Har sohada bellashamiz,  
So'z-la mehr ulashamiz,  
O'zbek tilim - davlat tilim.

14



Ko'pdir bugun tilda imkon,  
Shu til bilan kezugum jahon.  
Ingliz, yapon, hindiy zabon -  
O'zbekchada so'zlar ravon,  
Ifixorim - ona tilim.

qirqish chizig'i

Sizga bo'lsin sharaf-u shon, keksalar,  
Bizlar uchun ko'ksi qalqon keksalar.  
Baxtimizga yashang mangu farovon,  
Dil yashnatib bo'ling doim sog'-ommon.

Bu dunyoda o'ynab-kuling hamisha,  
Qayg'u chekmang, zavqqa to'ling  
hamisha.  
El-u yurtning kamolini tilab shod,  
Farzandlarni duo qiling hamisha.

## JAHON TILI - DO'STIK YO'LI

Bilam rus, ingliz tilin,  
Yaxshi go'yo o'z tilim.  
Axir ko'p bo'lsa bilim,  
Shuncha bo'lamiz olim,  
Kerak hatto yuz ilim.

9

Shundan beri har bahor,  
Uni quv nab kutamiz.  
Dilga shirin hislar yor,  
G'amlarni unutamiz.

Har uyda kutib mehmon,  
Hamma bir-birin qutlar.  
Noz-ne'mat mo'ldasturxon,  
Do'stga do'st qalbin tutar.



22

9


Kuz mo'l-ko'l, hosil-u boylik faslidir.  
G'alla-yu sabzavot - har narsa bisyor...  
Qovun, tarvuz, behi, oltin paxtazor,  
Anjir-u shaftoli, chorlar uzumzor.  
Mevalar g'arq dishar: olma-yu anor,

Tilim davlat tili bo'lgan faslidir.

Beruniy bobomiz dunyoga kelgan...  
Teleekran kuzda tasarruf bo'lgan,  
Davlat bayrog'imiz qabul qilingan.  
Kuzda ko'p alloma, shoir tug'ilgan,  
Kuz sana, sayillar, gullar faslidir.  
Ustozlar kuni-chi shod etar cheksiz,  
Bilimlar kuni ham biz uchun aziz,  
Zavqlanamiz bu kun kecha-yu kunduz.  
Istiqlol bayramin boshlab berar kuz,

## KUZDA...

52



Nasib etsin har kuni dono ustoz visoli!  
U - nafosat timsoli, iffat, hayo misoli,

Har joyda izzati bor, shuning uchun baxtiyor.  
Fidoysi, tashabbuskor, yosh-keksaga madadkor,  
Ma'naviyat tarqatar - ishi ezgu dunyoda!  
El-u yurtda e'zozli, qadri ulug', ziyoda,  
Jonajon muallimim doim shodon eslashar.

Gul farzandlar onasi, oilaning quyoshi,  
Har yumushda namoyon matonati, bardoshi.  
Bugun minglab o'g'g'il, g'izib-turi kasbda ishlashar,  
Har yuzdan muallimim doim shodon eslashar.

**DUNYOGA MASHAL***(Sharqshunos olim Baxtiyor Eshchonovga)*

- Ota-bobolardan qolgan ko'p meros,
- Ular dahosiga qilaman ixlos.
- Ilm-u fan ko'kida etardim parvoz,
- Siz kabi sharqshunos bo'lsaydim agar.
- Tarix yurtlarida sayr etardim,
- O'zbekim shahiniga ash'or bitarman.
- Ne buyuk olimlar qo'lin tutardim,
- Siz kabi sharqshunos bo'lsaydim agar.
- Vatanim shuhrati dunyoga mash'al,
- Bunda kashfiyotlar - dasturlanmal.
- G'ururim - dono xalq, shodmon har mahal,
- Siz kabi sharqshunos bo'lsaydim agar.

29

ishlay oladigan Muhammadni oilasidagilar va mahalla-ko'y shaxmat ustasi, deb tan oladi.

- Bundan tashqari, O'zbekiston televideniyesining «Oltin toj», «Mo'jizalar maydonchasi» ko'rsatuvlarining g'olibi. U «Shoirilar bolalarga» ko'rsatuvida ham o'zi yozgan she'rlari bilan ishtirok etgan.

Muhammad Sodiq Rahmonov davrimiz o'zgarishlari, mamlakatimizda bo'layotgan katta yutuq va yuksalishlar haqida, ona Vatanga zalligi va o'zining sevimli ustozlari haqida yozishni yaxshi ko'radi.

Biz kelajakda uning Vatanimizga, xalqimizga sodiq farzand bo'lib yetishishga umid bildiramiz.

Quyida tengdoshingizning she'riy mashqlaridan iborat bo'lgan mo'jaz kitobcha sizning shaxsiy kutubxonangizdan munosib o'rin egallaydi, deb o'ylaymiz.

2

**KO'P ASAR YOZING***(Shoir Abdulhay aka Nosirovga)*

- Radioda ishingiz,
- Oz emas tashvishingiz.
- Serqirra ijodkorsiz,
- Boladay beg'uborsiz.
- Turli xalq do'sdek yashar,
- Bizga hurlik yarashar.
- Kundan-kun gullab yashnar,
- Qiyosi yo'q chamanim,
- Mehrga kon Vatanim!
- Ellar baxt-iqbolga yor,
- Chunki erk topgan qaror.
- Yuksalar har bir diyoyor,
- Eng sevimli gulshanim - Aziz, ulug', Vatanim!

18

**XAZINADIR O'ZBEK TILIM**

- Ona tilim - jon-u dilim,
- Bebahodir o'zbek tilim.
- Xazinadir g'ij-g'ij ilm,
- Donolardan meros bilim,
- O'zbek tilim - davlat tilim.
- Durdona so'zlar ila gaplar tuzishni,
- O'rgatdingiz bayonni, insho yozishni.
- O'rgatdingiz tilimiz kuch-u qudratin,
- Ona tili orqali dunyo kezishni...
- Xatosiz yozmoq uchun etdingiz da'vat,
- Ona tili bizlarga xazina, davlat.
- Adabiyot bog'iga olib kirdingiz,
- Saboqlar uchun sizga ming bora rahmat.
- Unutmaymiz hech qachon sizni, ey ustoz,
- Nomingiz dilda mangu etamiz e'zoz.

13



qirg'ish chizig'i

Endi gulg'un shaharga aylanar bo'ldi cho'llar.

Ko'zlarni gamashitirar ko'rkan, pishiq ko'priklar.

Kollejlar yurt ko'ziga go'yo posbon kipriklar.

Yoshlar uchun hamisha kulib boqar kelajak.

Bilim olgan yigit-qiz istiqboli kulajak.

O'n besh yilki yurtimda mustaqil davr-u davron,

Bugun Vatani bog'iga faqat o'zimiz bog'bon.

Eng ulug', eng aziz bayram - bu katta shodiyona,

El-u yurt shodliklarga, baxtiga burkanar yana.

5

**GEOGRAFIYA DARSIDA...**

Xaritada taniganisiz bizga jahonni, Mamlakat-u shaharlarga etgansiz oshno. Bugun shodisiz ko'rsatib hur O'zbekistonni, Siz o'qitgan farzandlarga tan berdi dunyo.



26

**FAROVON BO'LSIN ZAMON**

- Yashash uchun baxtiyor - Chamanlar ko'p dunyoda.
- Mening ham chamanim bor,
- Go'zallikda ziyoda.
- Qo'ldan tushmasin kitob,
- Nur yog'ar go'yo oftob.
- Hikmat ko'p unda noyob,
- Oling do'stlar, ko'p bilim,
- Shunda bo'lasiz olim.
- Rus, ingliz - jahon tili,
- U - sizga do'stlik qo'li.
- Birlashar ellar dili,
- Biling, ingliz, rus tilin,
- Topping baxt, omad yo'lin.

10

**NAVRO'Z - XALQ SHODIYONASI**

Bundan ming yil avval ham, Xalq Navro'zni shod kutgan. «Mehnat boshi - bu bayram», Beruniy bobom aytgan.

- Shirin so'zdan boshlaysiz bemerga shifo,
- Ochiq chehra, mehringiz - malhamdir a'lo.
- Xalq sog'lig'in o'ylaysiz - bedor doimo,
- Istagingiz: «Inson sog', bo'lsin baxtiyor»,
- Siz hayot charog'boni, aziz shifokor!
- Tabobat fidoiysi, tinmay tun-u kun,
- Amaldasiz Gippokrat qasami uchun...
- Xastalar tuzalsa - shod, bag'ringiz butun...
- Oq xalatlari, pok ko'ngil, hamisha hushyor,
- Nomi ulug', el-yurtga mador shifokor!

12

## SKRIPKA NOLASI



Suratni V.Myasnikov olgan.

Besh yoshligimdan skripka chalishga qiziqaman. Tumanimizdagi 20-musiqa maktabiga ham olti yoshga to'lmisanoq o'qishga borganman. Yaqinda maktabimizda yillik-hisobot konserti bo'lib o'tdi. Maktabimiz direktori Malohat opa Og'ayeva iqtidorli o'quvchilarni «Faxriy yorliq»lar bilan taqdirladilar. Chunki maktabdoshlarimdan aksariyati **Hisobot** shahar miqyosida o'tkazilgan «Ozod diyorum» festivalida faxrli o'rinlarni egallashdi. Hisobot konsertida men ham ustozim Zligosteva Natalya Nikolayevna o'rgatgan «Yoshlik qo'shig'i» nomli musiqani skripkada chalib ishtirok etdim. Ishtirokchilarning eng kichigi bo'lganim uchun men ham «Faxriy yorliq» bilan taqdirlandim.

Shahzod IKROMOV, Ijtimoiy yo'nalishdagi  
Respublika maxsus gimnaziyasining  
2- «A» sinf o'quvchisi.

TONG  
yulduzi

O'zbekiston Respublikasi  
bolalari va  
o'smirlarining gazetasi

BOSH MUHARRIR:

Umida

ABDUAZIMOVA

TAHRIR HAY'ATI:

Turobjon JO'RAYEV,  
Dilbar OLIMJONOVA,  
Botir UBAYDULLAYEV,  
Jabbor RAZZOQOV,

Dilmurod RAHMATILLAYEV,

Dilshoda DADAJONOVA,

Feruza JALILOVA

(bosh muharrir o'rinbosari),

Sobirjon SHARIPOV,

Nurxon NAFASOV,

Ergashvoy SARIQOV.

Gazeta O'zbekiston  
Matbuot va axborot  
agentligida  
022-raqam bilan  
2003-yil 11-dekabrda  
ro'yxatdan o'tgan.

Noshir

«O'zbekiston»  
nashriyat-matbaa  
ijodiy uyi.

Gazeta

«O'zbekiston»  
nashriyat-matbaa  
ijodiy uyi

kompyuter bo'limida terib  
sahifalandi va  
chop etildi.

Gazeta haftaning dushanba  
kuni chiqadi.

Hajmi A-3,

2 bosma taboq.

Adadi - 48849

Buyurtma N: J 23

Dizayner va sahifalovchi:

Fazliddin  
SHAYADGAROV.

Navbatchi:

Ozoda  
TURSUNBOYEVA.

Rassom:

Nodira MIRZAYEVA.

Manzilimiz:

700129,

Toshkent shahri,

Navoiy ko'chasi, 30-uy.

Obuna indeksi: 198.

e-mail:

tong\_yulduzi@rambler.ru

Tel: 144-23-81

144-63-08

Tel./ faks:

(99871) 144-24-45

### GILOS LI TORT

Kerakli masalliqalar:

150 gr. saryog', 200 gr. shakar, 5ta tuxum, 100 gr. yong'oq mag'izi, 1ta limon, 1 choy qoshiq dolchin, 200 gr. un va qiyomdan olingan 250 gr. gilos.

Tayyorlanishi:

Saryog' 100 gr. shakar bilan yaxshilab aralashtiriladi, so'ng bu masalliqqa yong'oq, maydalangan limon, dolchin, un va gilos qo'shib, obdon aralashtiriladi. Tort gaz pechida 20-30 daqiqa pishirilgach, tayyor bo'ladi.



Ochil dasturxon

### SUYULTIRILGAN TVOROG LI SALAT

Kerakli masalliqalar:

4-5 dona pomidor, ozgina tuz, murch, 3/4 st. suyultirilgan tvorog, ko'k piyoz.

Tayyorlanishi:

Pomidorlarni yuvib, quritib, ularni dumaloq yoki cho'zinchoq shaklda kesib oling. Likopchaga terib, ustidan tuz va murch seping. To'g'ralgan pomidorlarning ustiga suyultirilgan tvorogni qoshiqda solib, ustidan ko'k piyoz bilan bezang.

### QIYALI SHO'RVA

Kerakli masalliqalar:

2 osh qoshiqda qiyma, 2 dona kartoshka, 1 dona piyoz, 1 dona qizil sabzi, 4 stakan suv, 3 osh qoshiqda pista yog'i, tuz.

Tayyorlanishi:

Kartoshkani archib, dumaloq shaklda kesib oling. Sabzini ham archib, uzunchoq shaklda kesing, piyoz to'g'rang.

Qaynagan suvga sabzavotlarni soling.

Qiymani 5-6 daqiqa qaynating.

Qopqog'ini qiya qilib yoping,

faqat qattiq qaynatib yubor-

mang. Qaynayotganida

ustiga yog' quyib, yana 15-


20 daqiqa qaynating.

Bu sho'rva juda

oddiy bo'lsa-da, ammo

parhezli hisoblanadi.

Yoqimli ishtaha!



NARGIZA.

### SAVOLLAR:

1.Dunyo. 2.Dono. 3.Suv yo'li. 4.Roman, ertak.  
5.Uzoq. 6.Tog' guli. 7.Yalinish. 8.Yuzdagi belgi,  
tirish. 9.Suv jonivori.10.Urf, oxirgi stil. 11.  
Qur'onning 1-surasi. 12.Osiyo davlati. 13.Xon. 14. ....sirim. 15. Ba'zan. 42. Norvegiya poytaxti. 43.Yapon arog'i. 44.Volga irmog'i.  
Futbol klubi. 16.Rivoj. 17.Qir. 18. Duradgor asbobi. 19.Bilim olish vaqti. 20.Harbiy bo'lim. 21.Martaba. 22.Imorat. 23. Sport firmasi. 24. Salomga javob. 25. Mona... 26.She'r vazni. 27.Yog' turi. 28.Shafqat. 29.Ozoda. 30.Barno. 31.Deraza. 32.Kiyim

qismi. 33.Baqiriq. 34. Paxtazor. 35. Optik asbob. 36. Universitet darsi. 37. Kattalik birligi m<sup>3</sup>. 38. Mo'tabar. 39. ...Rahimov (aktyor). 40.Musiqiy birlik. 41.

Tuzuvchi: Furqat DONISHEV,  
ToshDAI qoshidagi: Qibray Akademik  
litseyining 106-guruh o'quvchisi.

## BO'SH O'TIRMA - BOSH QOTIR!

